

BUYUK IPAK YO'LI XALQLARI ADABIYOTIDA OT BILAN BOG'LIQ URF VA UDUMLAR

*Ibodullayev Mannob Maxmatmurodovich,
Samarqand viloyat axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig'i.
E-mail: samaokb@gmail.com
Telefon: + 99897-915-23-32.*

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada insonning tabiat bilan uyg'un ekanligi, xususan, ot bilan bog'liq turmush tarzi, urf-odatlar haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Buyuk Ipak yo'li xalqlarining adabiyotida ot bilan bog'liq an'analar, marosimlar, ba'zida esa unutilayotgan urflar haqida qiziqarli ma'lumotlar, badiiy asarlardan parchalar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ В данной статье представлена информация о гармоничном сосуществовании человека с природой, в частности, об образе жизни и обычаях, связанных с лошадьми. В литературе народов Великого Шелкового пути приводятся интересные сведения о традициях и обрядах, связанных с лошадьми, а также отрывки из художественных произведений, в которых упоминаются порой забываемые обычаи.

ABSTRACT This article presents information on the harmonious coexistence of humans with nature, particularly focusing on the lifestyle and customs associated with horses. The literature of the peoples along the Great Silk Road provides interesting insights into horse-related traditions and rituals, as well as excerpts from literary works that mention sometimes forgotten customs.

Kalit so'zlar:От, жонивор, хонакилаштириш, Буюк Ипак йўли, туркий халқлар, отга сиғиниш, урф-одатлар, анъаналар, от қили, “ёғоч от”, от суяк қолдиқлари, от абзали, қурбонлик қилиш, Олтой халқлари, кимиз, қамчи.

Ключевые слова:Лошадь, животное, одомашнивание, Великий шелковый путь, тюркские народы, культ лошади, обычаи, традиции, конский волос, "деревянный конь," костные останки лошадей, конская упряжь, жертвоприношение, алтайские народы, кумыс, плеть.

Key words:Horse, animal, domestication, Great Silk Road, Turkic peoples, horse worship, customs, traditions, horsehair, "wooden horse," horse bone remains, horse harness, sacrifice, Altai peoples, kumis, whip.

KIRISH

Odamzodning evolyutsiyasida otni ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyatning rivojlanishi, taraqqiyotga erishishi hatto ayrim xalqlarning bugungi kundagi turmush tarzi ushbu jonivor bilan chambarchas bog'lanib, qorishib ketgan. Ot xonakilashtirilgandan buyon o'zaro jang-jadallarda, urushlarda eng asosiy vosita, qurol hamda ko'makchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Ikkinchidan, savdo-sotiq ishlarida, uy-ro'zg'or mehnatida, umuman jamiyatning taraqqiyotida otning xizmati behisob bo'lgan. Qaysi xalq, millat yoki elat ot va boshqa xonakilashgan jonivorlardan unumli foydalangan bo'lsa, demak munosib ravishda rivojlangan, deyish mumkin.

Buyuk Ipak yo'li xalqlari adabiyotida ot obrazi atrofida juda ko'plab voqea-hodisalar, afsonalar va rivoyatlar, urf-odatlar tasvirlangan. Asarlarda otning ulug'lanishi, unga sehrli kuch-qudrat berish, tabiat unsurlari bilan taqqoslash keng tarqalgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qadimgi slavyan xalqlari ijodida ot Quyosh tangrisining qayta tirilishi va o'limi, uning chiqishi va botishi ramzi sifatida tasvirlangan. Turkiy xalqlar ham otlarni juda e'zozlagan va bu urf-odatlariga aylangan. Xuddi shunday fikrlarni Sharq xalqlari, xususan xitoyliklarga nisbatan ham aytish mumkin. Xitoy hududida va boshqa joylarda oziq-ovqat, transport vositasi hamda harbiy kuch sifatida foydalanilgan yoki yetishtirilgan.²⁹

Turkiy xalqlar sirasiga kiruvchi boshqird va qoraqalpolarlarda chaqaloqqa otni yaqinlashtirish udumi qadimdan bo'lgan ekan. Ajdodlarimiz bu xatti-harakat kelajakda bolani baxtli qiladi, deb qattiq ishonishgan. Uyg'ur qardoshlar sariq va oq otga sig'inish darajasida e'tiqod qilgan bo'lsa, yoqutlar hozirgi kungacha marosimlarida ot qilini ishlatadi va uni muqaddas himoyachi, deb biladi. Kavkaz xalqlari, xususan, abxaz, lak, chechen, ingushlar otni gapiradigan, o'z shaklini boshqa qiyofalarga o'zgartira oladigan, jang paytida egasiga yordam beradigan aqlli mavjudot sifatida e'zozlagan.³⁰

Otga oid xtonik tasavvurlarning ta'siri tog'li hududlarda yashaydigan tojiklarda, umuman Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarida hozirga qadar saqlanib kelinadi va bu ularning badiiy adabiyotiga ham singib ketgan. Bugungi kunda Qoraqalpog'istongacha bo'lgan hududlarda yashayotgan insonlar tomonidan yaratilgan asarlarda tobutning "yog'och ot" (aspi-cho'bin) degan sinonimidan foydalaniladi. Bu haqda etnograf va sharqshunos, Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassis Antonina Pisarchik (1907 – 1995)³¹,³² tadqiqot olib borgan va tojiklar folklorida bugungi kunda ham uchrab turishi haqida aniq ma'lumotlar qoldirgan.³³

Qadimda xtonik xudolar nafaqat marhumlar bilan bog'liq er osti dunyosi personajlari sifatida, balki tiriklarning farovonligiga bog'liq bo'lgan tangri sifatida ham qabul qilingan. Masalan, etnograf va san'atshunos, xalq amaliy san'ati, sibirshunoslik bo'yicha mutaxassis Sergey Ivanov (1895-1986) tasvirlagan mansi xalqining odatini aynan shu ma'noda talqin qilish mumkin. Dekabr oyining oxirgi kunlarida bolalar xamirdan turli hayvonlarni, jumladan otlarni yasaganlar. Keyingi kun xamir haykallari kesilgan, bu, Sergey Ivanovning fikricha, hayvonlarni mahv etish, bo'ysundirish

²⁹ https://en-m-wikipedia-org.translate.google/wiki/Horses_in_Chinese_mythology?_x_tr_sl=en&_x_tr_tl=ru&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=rq&_x_tr_hist=true

³⁰ <https://sibpodkova.ru/help/articles/view/loshad-svyaschennoe-zhivotnoe/>

³¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Писарчик,_Антонина_Константиновна

³² https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonina_Pisarchik

³³ Писарчик А.К. Смерть, похороны. - В кн.: Таджики Каратегина и Дарваза, вып. 3. Душанбе, 1976, с. 186, примеч. 99.

harakatining ramzi hisoblangan. So'ngra esa xamirni eyishgan. Bu esa uy hayvonlarining farovonligiga yordam berishi kerak bo'lgan. Hozirgi mansilar uy-ro'zg'orda otdan foydalanmasalar-da, o'sha paytda xamirdan yasalgan hayvonlar orasida ot ham bo'lgani aniq ma'lumotdir.³⁴

Sharqshunos olim, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining yana bir tadqiqotchisi, etnograf va tilshunos, arxeolog Mixail Andreyev (1873-1948) hayvonlarni xamirdan tayyorlab, keyin ularni iste'mol qilish odati Tojikistonning Pomir tog'lari bag'ridagi xalqlarda ham borligini tadqiq qilgan.³⁵ M.Andreev Markaziy Osiyoning tog'li hududlarida hayvonlar, ayniqsa Darvozda ayg'ir otlar o'rtasidagi janglarga doir ma'lumot beradi.³⁶ Ko'chmanchi, yilqichilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarning qadimgi yodgorliklarini o'rgangan arxeologlar bu qabilalarning e'tiqodini ko'pincha shomonlik deb ataydi. Bu jihatdan qabrlardan topilgan ot suyak qoldiqlari kuzatuvlari qiziqish uyg'otadi.

Etnograf, arxeolog, gidrolog, boshqird xalqining etnografiyasi bo'yicha mutaxassis, an'anaviy e'tiqodlar va dinlari tadqiqotchisi Sergey Rudenko (1885-1969)³⁷ marhumning ijtimoiy mavqei qanday bo'lganini u bilan birga dafn etilgan otlar soni bilan o'lchangan, degan ma'lumot qoldirgan. Otni marhum bilan qo'shib ko'mish "ijtimoiy obro'"ning belgisi, ya'ni "qabilada hurmatga loyiq bo'lgani"ga ishora bo'lgan. Otning jihozlari ham xuddi shu tarzda talqin etilgan. Jumladan, Markaziy Osiyoning o'rta asrlarga oid bir qator san'at yodgorliklarida aristokrat-chavandozlarning ot abzalini tasvirlashda ana shu mazmunga alohida e'tibor qaratgan.

Qadimgi turklarda otlarni qurbonlik qilish odat tusiga kirgan edi. Ma'lumki, qurbonlik qilish amaliyotining asosida Tangrini rozi qilish va undan madad so'rash g'oyasi yotgan. "Dada Qo'rquq kitobi" (XIII-XV asr boshlari) dostonida bosh qahramon Bomsil Bayrak o'zining sodiq hamrohi – otiga shunday so'zlar bilan murojaat qiladi: "Seni ot deb atamayman, akam deb chaqiraman; sen menga akamdan ham yaxshiroqsan... seni do'stim deb atayman; sen menga do'stimdan ham yaxshiroqsan."³⁸

Qozoq xalqi ham qadimdan uy hayvonlarining orasida otni yuqori o'ringa qo'ygan. "Arslon – yovvoyi hayvonlarning shohi, ot – uy hayvonlarining shohi", "Botirning qanoti – ot", "Baxtsiz yigitni omadli ot qutqaradi" kabi maqol va iboralar haligacha xalq orasida yuradi. Otga nisbatan bunday maqtovlar uning inson hayotida muhim o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchi Bolot Bobobek o'g'li (Bolot Boobek uulu) Oltoy davlat universitetining ilmiy jurnalida "Qirg'izlar va Sayan-Oltoy xalqlari ot madaniyati" mavzusida e'lon qilgan maqolasida juda ko'p o'ziga xos ma'lumotlarni keltirgan. Muallif Oltoy xalqlarida otlarga nisbatan totemik e'tiqodlar qadimdan boshlanganini e'tirof etadi. Xususan, qirg'izlar otning bosh suyagini qizil rangga bo'yab, hosildor dalaning qarama-

³⁴ Иванов С.В. Скульптура народов Сибири XIX - первая половина XX в. Л., 1970, с. 61.

³⁵ Андреев М.С. Таджики долины Хуф, вып. II. Сталинабад, 1958, с. 928.

³⁶ Андреев М.С. Таджики долины Хуф, вып. II, с. 117.

³⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/Руденко,_Сергей_Иванович

³⁸ Книга моего деда Коркута / пер. В.В. Бартольда. М.; Л., 1962.

qarshi tomonidagi qoziqqa osib qo'ygan. Maqsad ko'z tegishining oldini olish, yanayam aniqrog'i odamlarning nigohi hosilga emas, balki otning qizil boshiga qaratish bo'lgan. Yana bir misol – agar biror uy chiroyli, ko'rkam qurilgan bo'lsa, ko'z tegmasin, deb uning yoniga otning bosh suyagini qoziqqa o'rnatib qo'yishgan.³⁹

Darhaqiqat, qirg'iz xalqining urf-odatlarida otning o'rni singib ketgan. Sovchilik an'anasida kelin tomonini qabul qiluvchilar sovchilarga "bosh ot" hadya qilishadi. Buning uchun eng sara ot tanlanadi. Boylik qo'ldan ketmasin, degan e'tiqodga ko'ra, otni olib kelgan arqonni qaytarib berishmagan. Otning yoli va dumidan bir tutam qil olib, boshiga oq paxta bog'lashgan.

Bunday marosimlarning ahamiyati haqida "Manas" dostonida shunday deyilgan ekan: Akizdūū, ak jol bolsun! dep, ak kebezden ayaktay Maral toru başına barpaytкан boydon baylatıp.⁴⁰

Xakas xalqida ham baxshad (ot) sovg'a qilish urf-odati bor ekan. Xakas an'analarga ko'ra, kelin tarafga "pas ot" (bosh ot) sovg'a qilinadi. Eng sara ot tanlanib, unga kumush uzangi taqiladi, ammo uni egarsiz, erkin holda kuyov tomonga yetaklab kelinadi. Boy-badavlat kishilar ikki-uchta ot (baxshad) hadya etishi mumkin bo'lgan.⁴¹

Xuddi shunday qirg'izlarda ham kelin tomonidan sep bilan birga maxsus tanlangan, kumush ot anjomlari bilan bezatilgan sara ot hozirlangan. Tadqiqotchilar Qirg'izistonning Qo'chqor muzofotida bunday an'analarga saqlanib qolingani va o'ziga to'q oilalarda davom etgani haqida ma'lumot to'plagan.⁴² Xakaslarda bu an'ana "izer at" deb atalgan – qizlar sepga qo'shib otni barcha anjomlari bilan birga olib kelishgan. Bunday o'xshash an'analarga deyarli barcha turkiy xalqlarda uchraydi.⁴³

Qirg'izlarda qimiz ichish bilan bog'liq urf va marosimlar ham keng tarqalgan. Ertalabdan ot sog'ib, qimiz tayyorlaydigan xonadonlarga butun ovulning erkaklari, ayollari va bolalari to'planadi. Uy bekasi qimiz tayyorlab, idish-tovoqlarni yuvib, qimizni bir necha idishga quyib, mehmonlarga uzatadi. Uyga kirgan qo'noq qimiz ichmasdan chiqishi mumkin emas. Agar mehmon qimizdan to'yib ichmasdan chiqib ketsa, bu uy egasi uchun or-nomus masalasi bo'lgan, bunday xonadon barakasiz hisoblangan. To'yib qimiz ichgan mehmon esa duo qilib chiqib ketishi kerak bo'lgan.

Otni boshqarish va chorva haydash uchun ishlatiladigan anjom qamchi deb aytiladi. Qamchi qizlar va kelinlar uchun alohida, erkaklar uchun bo'lak tayyorlangan. Qirg'iz xalqi orasida qamchi bilan bog'liq ko'plab e'tiqodlar, urf-odat, maqol va matallar ham bor ekan. Bunday an'analarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Masalan, qamchining dastasi, ya'ni ushlanadigan joyi odatda tavolgadan (uning yog'ochi qattiq va pishiq bo'lgan) tayyorlangan. Bu daraxtning rangi qizil bo'lib, u eng mustahkam o'simlik turi hisoblanadi. Ba'zi hollarda esa qamchining dastasi suyakdan (ohuning boldir

³⁹ Кыргызы: Источники, история, этнография / Сост. О. Караев, К. Жусупов. Б.: 1996. 524 с.

⁴⁰ Нестеров С. П. Конь в культах тюркоязычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. Новосибирск: 1990. С. 43.

⁴¹ Бутанаев В. Я. Традиционная культура и быт хакасов: Пособие для учителей, Абакан: Хакаское кн. изд-во, 1996. 224с.

⁴² Ямаева Е. Е. Родовые тамги Алтайских тюрков (XI-XXX вв). Горно-Алтайск. С. 8.

⁴³ Имель Молдобаев. Саян-Алтайга саякат (Тарькчышыш кунделугунен) // Ала-Тоо. 1988. № 10. 134-143-б.

suyagidan) yasalgan. Xalq orasida qamchi dastasining mustahkamligini erkaklarga nisbatan taqqoslangan. “Manas” dostonida “Qora olomonning ichida, Bir qamchi dastasidek bor edimi?” degan jumlar ana shunday qarashlar natijasida paydo bo‘lgan.⁴⁴

Xakaslarda ham bu anjom “xamchi” deb ataladi va u nafaqat doimiy foydalaniladigan buyum, balki er kishining atributi hisoblanadi. Qamchi otlarni har qanday kasalliklardan saqlaydi, egasiga esa baxt va omad keltiradi, degan e’tiqod mavjud.

Umuman, turkiy elatda qamchi va yugan muqaddas ahamiyatga ega bo‘lgan. Otni yugan bilan urish mumkin emas edi, chunki bunday holda otning egasi o‘ladi, degan gapga ishonishgan. Bundan tashqari, turar-joyga yuganni olib kirish taqiqlangan. Bunday an’anaviy urf-odatlarni chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi boshqa ko‘chmanchi xalqlarda ham uchratish mumkin. Masalan, P.Karpininning ma’lumotlariga ko‘ra, XIII asrdagi mo‘g‘ullarda “otni yugan bilan urish– suyakni suyak bilan urib sindirish” kabi jinoyat hisoblangan.⁴⁵

Urf-odatlar, an’analarining tarbiyaviy ahamiyati haqida gapirganda qirg‘iz o‘toviga kirishda qamchini tashqarida qoldirish yoki otning egariga osib qo‘yish shart bo‘lganini keltirish joiz bo‘ladi.

O‘zbek xalqida ham ot bilan bog‘liq e’tiqodlar juda ko‘p. Shulardan biri ot qoziqqa bog‘langanda, otning boshi uy tomonga qaratilishi kerak ekan. Shunday qilinsa, uning nafasi oila farovonligini ko‘paytiradi, deb ishonishgan. Bundan tashqari, otning nafasi ayrim kasalliklarni davolashda shifobaxsh hisoblangan. Xalq orasida haligacha oti bor hovliga yovuz ruhlar (jin-ajinlar) kirmaydi, degan gap yuradi. Shunga o‘xshash yana bir odat – har xil balo-qazolardan saqlanish uchun eshik-darvozalarga eski taqa qoqib qo‘yilgan. Hozir ham qishloq-ovullarda peshtoqiga taqa qoqilgan yoki osilgan xonadonlar ko‘plab uchraydi.

Yana bir odat, aniqrog‘i irim – ba’zi hududlarda ayollar chaqaloqqa birinchi ko‘ylakni kiydirish bilan bog‘liq “chilla ko‘ylak” marosimini o‘tkazishdan oldin, uni otning qozig‘iga ma’lum vaqt ilib qo‘yishar ekan. Bu bilan otning kuch-quvvati, chidamliligi go‘yo sehrli yo‘llar bilan chaqaloqqa o‘tib qolsin, degan maqsad qilingan.

O‘n ikki yillik taqvim aylanishida ot yili bor. Hozir ham aynan ot yilida odamlar baxt va farovonlik, qut-baraka, barcha sa’y-harakatlar samarali bo‘lishiga chin dildan ishonishadi. Ot bilan bog‘liq ilohiy qarashlar tush ko‘rishga ham singdirilgan – agar qiz tushida ot ko‘rsa, sovchi kelar ekan, yigit tushida ot minsa, jamiyatda yuqori mavqega erishadi. Xotin-qizlar paranji yopingan zamonlarda yuzni yopish uchun ishlatiladigan jun to‘r (“chimmat”, “chachvon”) ham ot qilidan tayyorlangan.⁴⁶ Chaqaloqning bo‘yniga bog‘lanadigan ot yolining bir tutami himoya vositasi bo‘lgan, homilador ayolni yovuz ruhlardan asrash uchun eshik tepasiga ayg‘irning suvlig‘i osib qo‘yilgan. Biya sutidan tayyorlanadigan qimiz xalq orasida sil degan kasallikning oldini olishda qo‘llanilgan.

⁴⁴ Самудинов Бообек, Кочкорский район село Кара-Суу, 72 года, из рода Сарыбагыш (информатор).

⁴⁵ Токтоматов Асанбек, Кочкорский район село Кара-Суу, 86 года, из рода Сарыбагыш (информатор).

⁴⁶ Azizov A. A. Cult of the Horse among the Uzbek People of the Fergana Valley // Research Result. Social Studies and Humanities. T. 5, Vol. 3, 2019.

Yaqin o'tmishda ham badavlat odam vafot etsa, dafn marosimi kuni uning onasi, xotini, opa-singillari va boshqa yaqin qarindosh ayollar marhumning otini egarlatib, ustiga otning sobiq egasi kiyimlarini yopgan holda aylantirib yurgan. Ot bilan bog'liq bu marosim "davra solish" deyilgan. Marosim otning dumini qirqish bilan yakunlangan, so'ngra ot erkinlikka qo'yib yuborilgan. Qirqilgan dum ot egasining vafot etganligini anglatib, bu otdan boshqa birov foydalanishini taqiqlash vazifasini bajargan.

XULOSA

Otni ulug'lash, ba'zida ilohiylashtirish yer sharining hamma mintaqasi va barcha xalqlarining hayotida uchraydi. Maqolada insoniyat otni qut-baraka manbai, sodiq do'st, donishmand hamroh, bir so'z bilan aytganda mo'jiza sifatida qabul qilishi va, natijada, ushbu jonivor odamlarning turmush tarziga, urf-odatiga, an'alariga aylanganiga e'tibor qaratildi va bunga ayrim misollar keltirildi.

Buyuk Ipak yo'li xalqlari, asosan uning markazida joylashgan turkiy xalqlarda ot bilan bog'liq urflar bir-biriga juda yaqin ekanligi, bu ushbu elatlarning adabiyotidan mustahkam o'rin olganiga guvoh bo'ldik. Fikrimizcha, mavzuning ko'lami juda keng va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar hali davom ettirilishi kerak. Zero, badiiy adabiyot xalqlarning urf-odatlari, an'alarini asl holicha saqlab qolishda asosiy o'rinlardan birida turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Писарчик А.К. Смерть, похороны. - В кн.: Таджики Каратегина и Дарваза, вып. 3. Душанбе, 1976, с. 186, примеч. 99.
2. Иванов С.В. Скульптура народов Сибири XIX - первая половина XX в. Л., 1970, с. 61.
3. Андреев М.С. Таджики долины Хуф, вып. II. Сталинабад, 1958, с. 928.
4. Андреев М.С. Таджики долины Хуф, вып. II, с. 117.
5. Книга моего деда Коркута / пер. В.В. Бартольда. М.; Л., 1962.
6. Кыргызы: Источники, история, этнография / Сост. О.Караев, К.Жусупов. Б.: 1996.524 с.
7. Нестеров С. П. Конь в культах тюркоязычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. Новосибирск: 1990. С. 43.
8. Бутанаев В.Я. Традиционная культура и быт хакасов: Пособие для учителей, Абакан: Хакасское кн. изд-во, 1996. 224с.
9. Ямаева Е. Е. Родовые тамги Алтайских тюрков (XI-XXX вв). Горно-Алтайск. С. 8.
10. Имель Молдобаев. Саян-Алтайга саякат (Тарькчышыш кунделугунен) // Ала-Тоо. 1988. № 10.134-143-б.
11. Самудинов Бообек, Кочкорский район село Кара-Суу, 72 года, из рода Сарыбагыш (информатор).
12. Токтоматов Асанбек, Кочкорский район село Кара-Суу, 86 года, из рода Сарыбагыш (информатор).

13. Azizov A. A. Cult of the Horse among the Uzbek People of the Fergana Valley // Research Result. Social Studies and Humanities. T. 5, Vol. 3, 2019.
14. https://en-m-wikipedia-org.translate.goog/wiki/Horses_in_Chinese_mythology?_x_tr_sl=en&_x_tr_tl=ru&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=rq&_x_tr_hist=true
15. <https://sibpodkova.ru/help/articles/view/loshad-svyaschennoe-zhivotnoe/>
16. https://ru.wikipedia.org/wiki/Писарчик,_Антонина_Константиновна
17. https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonina_Pisarchik
18. https://ru.wikipedia.org/wiki/Руденко,_Сергей_Иванович